

TOSHKENT DAVLAT  
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

---

# TURKOLOGIYA TURKOLOGY


XALQARO ILMIY JURNAL

---


ISSN 2181-2101

2024 1-2

ISSN 2181 – 2100



# TURKOLOGIYA TURKOLOGY



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI  
ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО  
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY  
OF ORIENTAL STUDIES

1 - 2

2024

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi ro‘yxatidan o‘tgan  
(№ 1129, 11.11.2020-y.) **ISSN 2181 – 2101**

**Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shovkatovna**  
*filologiya fanlari nomzodi, professor*

**TAHRIR HAY’ATI**

<b>Q. Omonov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)</i>
<b>P. Kenjayeva</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul kotib)</i>
<b>B. To‘xliyev</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>Q. Sodiqov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>Sh. Usmanova</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>H. Dadaboyev</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>N. Rahmonov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>B. Karimov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>X. Islamjanova</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>X. Hamidov</b>	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
<b>A. Alimbekov</b>	<i>filologiya fanlari nomzodi, professor</i>
<b>Dj. Shabanov</b>	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
<b>Sh. Sodiqova</b>	<i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent</i>
<b>N. Abdullayev</b>	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
<b>M. Is’hoqov</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>D. Sayfullayev</b>	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
<b>X. Fayziyev</b>	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
<b>Z. Alimov</b>	<i>tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
<b>N. Xolmatov</b>	<i>iqtisod fanlari nomzodi, dotsent</i>
<b>Z. Qodirova</b>	<i>iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i>
<b>M. Vohidova</b>	<i>iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)</i>
<b>R. Bahodirov</b>	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
<b>A. Shonazarova</b>	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
<b>O.Mert</b>	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
<b>H. Baydemir</b>	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>
<b>V.S.Yelok</b>	<i>Turkiyaning Anqara Hoji Bayram Vali universiteti dotsenti</i>
<b>N. Telitsin</b>	<i>SPbDU Turkologiya kafedrasi mudiri, professor</i>

**Nashrga tayyorlovchilar:**

**J. Ismoilov, G. Hushnazarova, H. Sulaymonova**

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi  
lozim bo‘lgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Oliy  
Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz  
web-site: www.tsuos.uz

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2024

## МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

### Adabiyotshunoslik

<i>Alimbekov A.</i> Hassos romannavis (Rashod Nuri Guntokin) .....	4
<i>Kenjayeva P.</i> Toriq Bug‘ro hikoyalarida psixologik tasvir ko’rinishlari .....	12
<i>Azizova N.</i> XX asr boshlarida zamonaviy turk she’riyatining shakllanish omillari.....	21
<i>Karimova Sh.</i> Farid Edgu hikoyalarida qahramon ruhiyatini aks ettirishning badiiy-psixologik tamoyillari.....	28
<i>Rajabov F.</i> Tasavvuf adabiyoti haqidagi ilmiy-nazariy qarashlar .....	36
<i>Abdulxayeva D.</i> Selim Ileri hikoyalarida qahramon psixologiyasi talqini.....	44

### Tilshunoslik

<i>Usmanova Sh.</i> Özbek türkçesi ve türkiye türkçesinde “nan/ ekmek” konsepti.....	52
<i>Allambergenova M.</i> Qadimgi turkiy rasmiy hujjatlarning uslubiy-semantic taraqqiyoti.....	70
<i>Aripov M.</i> Turkcha tilak, olqish va duolarning ijtimoiy-estetik funksiyalari.....	81
<i>Salimova Z.</i> Turk va o‘zbek tillarida gul nomlari vositasida inson obrazining ifodalananishi.....	90
<i>Annazarova T.</i> Paralingvistik vositalar tadqiqida turli maktab va yondoshuvlar.....	98

### Tarjimashunoslik

<i>Hamidov X.</i> Aziz Nesin asarlaridagi maqol va iboralarning tarjimada berilishi masalasi .....	110
--	-----

### Manbashunoslik

<i>Omonov Q.</i> Yozma manbalarda Turon davlatining quruvchisi Alp Er To‘nga shaxsiyati bilan bog‘liq ma’lumotlar.....	122
--	-----

## TURK VA O'ZBEK TILLARIDA GUL NOMLARI VOSITASIDA INSON OBRAZINING IFODALANISHI

*Salimova Zebo*

*Katta o'qituvchi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), TDSHU*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqola turk va o'zbek tillarida gul nomlari orqali inson obrazini ifodalashdagi ahamiyati haqida. Fitonimik lug'at orqali shaxsni obrazli nominatsiya qilish muammosi tilshunoslikda o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning lingistik qiymatining sababi insonni o'zini o'rab turgan tirik tabiat sharoitida o'zini anglashning uzluksiz jarayonida yotadi. Ushbu jarayon fitosferani antropotsentrik talqin qilishning yangi shakllari bilan doimiy ravishda ta'minlanib, keng tarqalmoqda. Bir tomonidan, u so'z boyligining barcha yangi qatlamlarini qamrab oladi, boshqa tomonidan, turli darajadagi til darajalariga kirib boradi. Bu darajalarning eng qudratlisi - matn darajasi ham chetda qolmaydi.

Turk tilida inson qiyofasini aks ettirish, ularning xarakterlarini ochib berishda gul nomlari, tilning so'z boyligiga e'tibor qaratiladi.

**Kalit so'zlar:** til, inson qiyofasi, obraz, portret, ijobiy, salbiy, tashqi ko'rinish, o'xshatish, obraz, muqobil, ekvivalent, ma'no ko'chishi.

**Özet.** Bu bilimsel makale, insan imagesinin Türkçe ve Özbek dillerindeki çiçek adları üzerinden ifade edilmesinin önemi hakkındadır. Bir kişinin fitonimi sözlüğü aracılığıyla mecazi olarak aday gösterilmesi sorunu dilbilimdeki önemini kaybetmemiştir. Dilsel değerinin nedeni, bir kişinin kendisini çevreleyen canlı doğadaki sürekli öz farkındalık sürecinde yatkınlıktağıdır. Bu süreç, fitosferin insan merkezli yorumunun yeni biçimleriyle sürekli desteklenmeyece ve yaygınlaşmaktadır. Bir yandan kelime doğarcığının tüm katmanlarını kapsarken, diğer yandan dilin farklı düzeylerine nüfuz eder. Bu düzeylerin en güçlüsü metin düzeyidir.

Türk dilinde bir kişinin imajını yansıtırken ve karakterini ortaya koyarken çiçek isimlerine ve dilin söz varlığına dikkat edilir.

**Anahtar kelimeler:** Dil, insan imagesi, görüntü, portre, olumlu, olumsuz, görünüş, benzetme, görüntü, alternatif, eşdeğer, anlam aktarımı.

**Abstract.** This scientific article is about the importance of expressing the human image through the names of flowers in Turkish and Uzbek languages. The problem of figurative nomination of a person through a phytonymic dictionary has not lost its importance in linguistics. The reason for its linguistic value lies in the continuous process of self-awareness of a person in the living nature that surrounds him. This process is constantly supported by new forms of anthropocentric interpretation of the phytosphere and is becoming widespread. On the one hand, it covers all new layers of vocabulary, on the other hand, it penetrates to different levels of language. The most powerful of these levels is the text level.

In the Turkish language, attention is paid to the names of flowers and the vocabulary of the language to reflect the image of a person, to reveal their character.

**Key words:** Language, human image, image, portrait, positive, negative, appearance, simile, image, alternative, equivalent, transfer of meaning.



**Kirish.** Nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlar muhim rol o'ynaydi. Zero, inson hayoti flora bilan uzviy bog'liqdir. Tilshunos olimlarning o'simlik dunyosiga alohida e'tibor qaratishining birinchi sababi shu bo'lsa, ikkinchidan, o'simliklar bilan aloqador til birliklari xalqning olam lisoniy manzarasida asosiy o'rinalardan birini egallaydi. Fitonimlar xalq tafakkurida mifologik, diniy va adabiy an'analar bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Fitomorfizmlar fikrlashning dastlabki shakli bilan ham aloqador bo'lib, unga xos tushunchalar tilga ham ko'chgan. Fitonimlar qator tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilishda, ularni turli diskursda (adabiy, she'riy, ilmiy) ko'rib chiqish davom etmoqda.

**Madsad va vazifa:** Mazkur maqolada gul nomlari bilan bog'liq ismlarning turk va o'zbek tillari olam lisoniy manzarasini ifodalovchi vosita ekanligini dalillash maqsadida o'zbek va turk tilidagi fitomorf komparativ birliklarning badiiy asarlarda qo'llanilishini tahlil qilish vazifasi qo'yilgan.

**Usullar:** Maqola mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

**Natijalar va mulohaza:** Yer kurrasining deyarli hamma qismida uchraydigan o'simliklarning tabiat va inson hayotidagi roli beqiyosdir. Ular o'z faoliyati davomida anorganik moddalarni organik moddalarga aylantiradi. Ma'lumki, organik moddalar (o'simliklarning o'zi) kishilar va hayvonlar uchun zarur oziq hisoblanadi. Yashil o'simliklar hosil qilgan oziq moddalarda quyosh enengiyasi to'planadi. O'simliklar dunyosi uning inson hayotidagi ahamiyatini hisobga olgan holda, madaniy hayot uchun alohida ahamiyatga ega. Bu esa tilshunoslikda o'simliklarni leksik-semantik va lingistik-madaniy jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Inson yaratilgandan beri o'simliklar bilan aloqada bo'lgan. Ular gohida o'simliklardan oziq-ovqat sifatida, gohida esa o'z dardini davolash uchun dori sifatida foydalanishgan. Ikkala asosiy ehtiyojni ham qondiradigan o'simliklar vaqt o'tishi bilan qondirish ehtiyojlariga qarab yoki shakli o'xshashligi natijasida turli nomlar ola boshladi. Bu o'sish insonning vaqt o'tishi bilan boyib borayotgan so'z boyligiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.<sup>1</sup> Inson hayoti flora dunyosiga katta e'tibor qaratadi. Fitonimlar qator tadqiqotchilarning e'tiborini jalb qilishda, ularni turli diskursda (adabiy, she'riy, ilmiy) ko'rib chiqish davom etmoqda. O'simliklar ko'p jihatdan tekshiriladi va bu tekshiruvlarga muvofiq ravishda nomlar berila boshlandi. Hozirda barcha o'simliklarni o'z nomlari mavjud. O'simliklarga nom berila boshlagandan keyin ularning nomlaridan insonlar o'zlarini uchun ism tariqasida ham foydalana boshlashdi. Shuningdek, nutqda inson obrazining yaratilishida fitonimlarning roli ko'paydi. Xususan, gul nomlari qizlar uchun jozibador ismlarga aylana boshladi. Gullar go'zallik va nafosat timsoli hisoblanadi. Odatda, gul fitonimi yordamida chiroyli, xushxulq va nafosatli

---

<sup>1</sup> Yasemin Y. Türkçe bitki adlarının anlam bilimi açısından incelenmesi. doktora tezi. t.c. sakarya üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü:2020.-S.98



ayollar obrazi aks ettiriladi.<sup>1</sup> Stiv Wonder: “Sevgi guldek go‘zal bo‘lsa, onam sevgining go‘zal gulidir” – deb bejizga aytmagan. Bundan ko‘rinib turibdiki, gullardan nafaqat ayollarning ismi sifatida, balki ularning go‘zalligini ta’riflash uchun ham qo‘llanilgan.

O‘zbek ismlari turli-tumanlik bilan ajablanarli, juda ajoyib qurilish va ko‘p qirrali qiymatga ega. Bu ismlar ekzotik va g‘ayrioddiy ko‘rinishi mumkin. O‘zbek ayollari ismida gullarga oid ismlarni uchratish mumkin. Chunki fitonimlarga oid ismlar odatda ayollarning nafis, dilbar va maftunkor go‘zalligini yoritib berish uchun xizmat qiladi. Misol tariqasida Lola ismini olish mumkin. Lola ismi loladek yashnagan, nafosatli, chiroyli, ko‘rkam, go‘zal qiz yoki lolalar ochilgan paytda tug‘ilgan qiz degan ma’nolarni anglatadi. Turklar har doim tabiat bilan chambarchas bog‘liq hayot kechirgan. Ular bu hayot davomida suvdan, daraxtlardan, o‘simpliklardan, hayvonlardan va barcha tirik mavjudotlardan bahramand bo‘lishdi. Shu sababli ham turklarning tabiat bilan bo‘lgan aloqasi katta va buni barcha sohada uchratish mumkin. Shunindek, tabiat nomlaridan olingan ismlar bunga yaqqol misol, bo‘la oladi. Bundan tashqari, yangi tug‘ilgan qizga gul nomini berish juda qadimiylar an‘anadir. Bola gul nomi bilan atalsa, go‘dak ulg‘aygach xuddi gullardek go‘zal bo‘ladi, deb ishoniladi. Bu e’tiqodga qo‘shimcha ravishda, gul nomlari juda ijobjiy va go‘zal ma’nolarga ega hisoblanadi.

Gullarning ramziy ma’nolari tarixga chuqur kirib boradi va turli madaniyatlarda turli xil ma’nolarga ega. Turk va o‘zbeklar dunyosida gullar bilan bog‘liq bo‘lgan birliklardan qizlarni ismiga qo‘yishda keng foydalilanildi. Gul fitonimlariga oid ismlar qo‘yish, asosan, Turkiyada juda ham keng tarqalgan. Xususan, Yaprak, Fidan, Selvi, Kiraz, Ayçicek, Buket, Burçak, Çicek, Demet, Fulya, Gelincik, Gül, Gonca, Gülçicek, Kardelen, Nevgül, Nevra, Papatya, Süsen, Yasemin, Yonca, Yosun, Akasya, Reyhan va yana shu kabi ko‘plab ismlarni misol tariqasida olish mumkin. Bu ismlarning barchasi o‘simpliklarga oid bo‘lib, har birining o‘zgacha ma’nolari mavjud. Xususan, lug‘atlarda Çiçek ismini o‘simplikning turli xil ranglari bilan bezatilgan xushbo‘y qismi deb atashadi. Ammo gul hayotni va hayot manbayini anglatadi. Bu go‘zallik va xushbo‘ylikni va chaqaloqqa bu nomni berish tabiatning eng go‘zalligini anglatadi. Ayçicek ismi esa oy kabi yorug‘, guldek go‘zal degani. Kungaboqar quyosh chiqqanida o‘ngga buriladi, botganda esa unga ergashadi, shuning uchun u o‘zining go‘zalligini quyoshdan oladi. Kungaboqar quyoshdek go‘zal yuzli degan ma’noni bildiradi. Bilamizki, gullarning turf xil ranglari mavjud bo‘lib, gullarga oid ismlarda ham ranglar boshqa-boshqa ma’nolarni anglatib ism ma’nosini o‘zgartirib yuboradi. Masalan, turklardagi Akasya ismi bu gulning qizil, pushti, oq va sariq ranglari bor. Agar Akasya ismi oq akasiyaga nisbatan qo‘yilsa, do‘stlik ramzini anglatadi

<sup>1</sup> Salimova Z. “Turk va o‘zbek tillarida inson obrazining zoomorf hamda fitomorf komparativ birliklarda ifodalanishi”. Aftorefererat diss. Toshkent: 2023.-B.97

va bu do'stlarni qadrlaydigan va do'stlarini juda yaxshi ko'radiganlar degan ma'noni beradi. Sariq akatsiya esa platonik sevgini anglatadi. U izhor qilinmaydigan va izhor qilishdan uyaladigan sevgi gulidir. Pushti va qizil akatsiya bu go'zallik, nafislik va nafosatni anglatadi. Jumladan, Lola ismi sevgini ifodalovchi nafis gul. U o'z mavsumidan tashqari gullamaydi. Shuning uchun bu gul vaqtini qadrlaydigan gul hisoblanadi. Lola ismi ham ranglarga ko'ra farqlanadi. Qizil lola sevgini tan olishni anglatса, sariq lola umidsiz sevgini anglatadi. Shunindek, bu ismlar qizlarning ismiga yanada chiroy qo'shadi. Ciğdem, lale, manolya, menekşe, nergis, nilüfer, orkide, yazgülü kabi gul nomlaridan olingan ismlarni ham uchratish mumkin. Ko'p so'zlardan, ayniqsa, o'simliklar va mevalarning nomlaridan iborat shaxs ismlarining oldiga yoki oxiriga "atirgul" va "lola" so'zlarini qo'shish orqali hosil qilingan ismlarning sezilarli soni bor: Agagül, Akcagül, Akgül, Almagül, Aygül, Ayıtgül, Ayläle, Bagtigül, Bahargül, Bäbekgül, Bägül, Bibigül, Bikegül, Cumagül, Çemen, Çeber, Dessegül, Eneğül, Ecekegül, Erikgül, Gızılgül, Gunça, Gül, Gülay, Gülbagt, Gülbahar, Gülbatır, Gülbibi, Gülbike, Gülcemal, Gülcécek, Güldesse, Gülälek, Güli, Gülnar, Gülnur, Gülsoltan, Gülsen, Gültäç, Gülüstan, Gülzár, Leyli, Läle, Mamagül, Melevše, Nargül, Nergis, Novgül, Novruzgül, Oulgül, Pamikgül, Ragna, Sarigül, Sazakgül, Siňren, Soltangül, Sumbül, Täzegül, Togtagül, Servigül, Üzümgül, Yaylagül, Yazgül, Yipargül va shu kabilar shular jumlasidan hisoblanadi. Qo'shimcha sifatida shuni ham aytib o'tish joizki, ba'zi so'zlarga gul so'zini qo'shish orqali ham ko'plab ismlar yaratilgan. Gül, gülay, gülderen, gülendam, gülören, güleser, gülser, gülseren, gülşah, gülsen, gülten kabi so'zlar bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bundan tashqari, Berdi Sariyev gül so'zi bilan yasaladigan ismlarni 7 ta kategoriyaga bo'lib izohlagan:

1.“Gül+İsim = İsim+Gül” formulasida yasalgan ismlar:

Gülay / Aygül, Gülbahar / Bahargül, Gülbibi / Bibigül, Gülbike / Bikegül, Güldesse / Dessegül, Gülnar / Nargül, Gülsoltan / Soltangül

2. “Gül + İsim = İsim + (i, i) + Gül” formulasi bilan hosil qilingan ismlar: Gülbaxt / Bagtigül, Gültäç / Täcigül

3- “Renk + gül” formula bilan yasalgan ismlar: Akgül, Akcagül, Gızılgül, Sarigül

4- “Konum, yer bildiren sözcükler + gül” formulasi bilan yasalgan ismlar: Sähragül, Yaylagül

5- “Akrabalik terimleri + gül” formulasi bilan yasalgan ismlar: Bäbekgül (Bebek), Oulgül (Oğul), Agagül (Ağabey/abi, amca), Ecekegül (Abla), Bibigül (Hala/bibi), Enegül (Anne/Nine), Ecegül (Anne), Mamagül (Büyükanne)

6- “Gün + gül” formulu bilan yasalgan ismlar: Annagül, Adnagül, Cumagül

7- “Bayram günü + gül” formulu bilan yasalgan ismlar: Ayıt + gül, Hayıt + gül.<sup>1</sup>

Shuningdek, tog‘ va cho‘l o‘simliklari nomidan olingen ismlar ham turklarda keng tarqalgan. Jumladan, Akpamik, Arca, Arcaveli, Arça, Arpapolat, Borcak, Borcakberdi, Bozagan, Çalı, Çemen, Çalı, Çerkez, Çınar, Çınarberdi, Çınarbibi, Çınargulı, Çınargül, Çiratan, Çomuç, Dagdan, Endap, Ezgen, Gandım, Gunça, Gürüm, Gürmek, Kerkav, Ketgen, Maysa, Maysabibi, Maysabike, Maysacemal, Maysagözel, Maysağül, Maysahan, Maysatäç, Mekge, Nergiz, Nergiz, Nergizcemal, Nobar, Nobaralı, Ocar, Ocarberdi, Ocardurdı, Ocargulı, Pamik, Pamıkcemal, Pamıkgözel, Peşmek, Pudak, Pürli, Rana, Ragna, Reyhan, Reyhangul, Sazak, Sazakberdi, Sazakgul, Siňren, Sözen, Sümbül, Şemşat, Toplak, Toraňni, Turşek, Yaprak, Yılgin, Yovşan va Yovşangeldi, kabi ismlar ham fitonim nomlaridan olingen. Nevra: Nevra nomi oq gul degan ma'noni anglatadi. Itir, Belemir, Gulnar, Gulnar, Figen, Muge, Lily kabi gul nomlari inson xususiyatlarini aks ettirgani bois ismlarga aylangan.

O‘zbek tilida ham fitonimlarga oid ismlarni ko‘p uchratish mumkin. Masalan, Rayhon, Nargis, Lola, Gunafsha, Jasmin, Binafsha va shu kabilar. Shuningdek, turk tili kabi o‘zbek tilida ham yuqorida keltirilgan Berdi Sariyevning yaratgan kategoriyasi kabi so‘zlardan oldin yoki keyin gul so‘zini qo‘sish orqali ham ismlar hosil qilingan. Xususan, Gulchehra, Gulmira, Gulsara, Gurnora, Gulnoza, Gulsanam, Gulhayo, Chinnigul, Mohigul, Gulzoda, Gulshan, Orzigul, Niyatgul, Sarvigul, Ismigul, Gulasal, Guldona, Oygul, Guljahon, Gulzira, Gullola, Guloyim, Guloy, Gulira’no, Guljamol, Gulbegim, Gulinoz, Gulsum, Guli, Gulchiroy, Gulsevar, Gullar, Gulnoz, Gulruk, Gulnur, Gulandom, Gulyora, Gulzira, Gulyuz, Gulpari, Guljannat, Gulanor, Gulhida, Gulnigor, Gulchinor, Gulbonu, Gulniso, Gulshoda, Guliza, Guldasta, Gulafro‘z, Gulsina, Gulbibi, Gulzor, Gulinor, Gulzebo, Gulobar, Gulishaydo, Guldono, Gulbahra, Gulg'uncha, Gulzuhra, Gulbarg, Gulnamo, Gulsumsn Gulchechak, Gulnor, Gulirayhon, Gulsaboh, Gulnura kabilar shular jumlasidan hisoblanadi. Gul madaniy, tabiatning eng zarur va chiroqli qismidir. Uning rang-barangi va muhtaramligi insonlar uchun doimiy ilhomdir. Tabiatga qaraganda, har bir gul o‘zining mos keluvchi joyda o‘sishi, rang-barangini ko‘rsatishi va uning aromati bilan insonlarni o‘ziga jamlashi bilan afzaldir. Gul madaniy timsol sifatida ifodalanganidek, bu dunyo madaniyatining bir darajasidir. Gullar odamlar uchun ilhom manbai bo‘lib, ularning ko‘rinishi va aromati insonlarga joylik yetkazadi. Ular mantiqiy va jismoniy baxtsizlikni orttiradi va insonlarga murojaat qilish imkoniyatini beradi. Gul madaniyatning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi, chunki gullarning tasvirlari, rasmlari va ular haqida she'r-zamonaviy adabiyotda ko‘p ketma-ketlik ustidan yozilgan.

<sup>1</sup> SARIYEV B. (2017). “Türkmen Ad Biliminin Botanik Gücü”, Berdi Sariyev - Türkmen Türkçesi ve Kültürü Üzerinde Makaleler (Haz. Emrah Yılmaz, Tuğba Yılmaz,) Ankara: Akçağ Yay., 105-113.

Gullarning turli xil rang-baranglari insonlarda xursandlik hissiyatini o'stiradi. Bu esa hayotda yashashni zavqlantiradi va tabiat bilan birga bo'lish imkonini beradi. Gullar musiqasi ham insonlar uchun ilhom manbalaridan biridir. Ular tomoshabinlar uchun musiqaga o'xshash tarzda hayotga rasm etkazuvchi, qalblarni mammun etuvchi sifatlariga ega. Bu sababli, gul madaniyatining timsoli sifatida ifodalanganligi haqiqatan ham amalga oshiriladigan ahamiyatlari mudda bo'lib turibdi. Insonlar dunyoqarashiga gullarning joylashgan joylarni temashalarida mo'minlik buladilar va bu ularga kuchquvvat beradigan ahamiyatlari manba hisoblanadi.

Turk va o'zbek tilidagi bu ismlarning ba'zi o'xshashlik tomonlari ham mavjud. Masalan, Rayhon=Reyhan, Lale=Lola, Nargis=Nergis, Gulshan=Gulşen, Gulzar=Gülzar va yana shu kabi ismlar faqat talaffuzida farq qiladi, ma'nosi esa turk va o'zbek tilida ham deyarli bir xil bo'ladi.

Qo'shimcha sifatida shuni ham aytish joizki, o'zbek xalq dostonlari hamda asarlarida fitonimga oid ismlarni tez-tez uchratish mumkin. "Ravshan" dostonidagi ushbu parchani misol keltirish mumkin: "Avazxonga Gulqiz degan bir barno suluvni olib berib, uyini tushirib berib, davrini surib yuraverdi. Hasanxonga xon Dallidan bir o'g'il paydo bo'ldi. Go'ro'g'libek to'ylar qilib, otini Ravshanbek qo'ydi. Avazxon bir-ikki yildan so'ng qizli boidi. Go'ro'glibek quvonib, suyunib, munga ham to'ylar qilib, otini Gulanor qo'ydi. Enagalar parvarish qilib boqib, bachalarni tarbiya qilib katta qildi".<sup>1</sup>

Chingiz Aytmatovning "Alvido, ey Gulsari" asarida : "Eski aravani keksa bir kishi haydab borardi. Saman yo'rg'a – Gulsari ham juda qari edi"<sup>2</sup> hamda O'lmas Umarbekovning odam bo'lish qiyin asarida fitonimga oid ismlar o'z aksini topgan: "U bu qizni anchadan beri tanir edi. Qishloqda ular yurmagan so'qmoq, ular qilmagan sho'xlik qolmagan. Gulchehraning otasi Obid akaning o'rtog'i bo'lib, yoshlikdan birga o'sishgan, hattoki ikki yilcha urush davrida bir qismda xizmat qilishgan edi".<sup>3</sup> Bu dostonlarda Gulqiz, Gulanor, Gulsari, Gulchehra va Oygul kabi fitonimlarga oid ismlar qo'llanilgan. Yuqorida "Ravshan" va "Odam bo'lish qiyin" asarlarida Gulqiz, Gulchehra va Gulanor ismlarini doston ichida uchratish mumkin. Gulsari va Oygul nafaqat asar ichida qahramon sifatida keltirilgan, balki asar nomi sifatida ham qo'llanilgan. Shu bilan birgalikda bu asarlarni yanada jozibador qilishga va asar qahramonlarini turli xarakterlar hamda obrazlarda yoritib berishga yordam bergen.

<sup>1</sup> "Kuntug'mish" va "Ravshan" dostonlar. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh nashriyoti. Toshkent:2011. B-165.

<sup>2</sup> Chingiz Aytmatov "Alvido, ey Gulsari" qissa. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent:1969. B-2.

<sup>3</sup> O'lmas Umarbekov "Odam bo'lish qiyin" roman. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent:2007. B-12.



Fitonim nomlaridan nafaqat ayollarni ismi sifatida, balki ularni adabiyotda, xususan, g'azallarda keng ko'larda qo'llanib kelinmoqda. Misol tariqasida o'zbek tilidagi sarvi gulro', gulruxsor, lola, gul, gulshan kabi fitonim so'zlarni keltirish mumkin:

Kecha kelgumdir debon ul sarvi gulro' kelmadi,

Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi. (Alisher Navoiy)

Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori, Qading, ey gul, hayotim bog'ining sarvi ravonidur. (Bobur)

Xating aro uzoring sabza ichinda lola, Ul chashmi purxumoring loladag'i g'azola. (Bobur)

Farzandlar uchun mukammal ismni tanlash haqida gap ketganda, ko'plab ota-onalar fitonim nomlarining go'zalligi va ramziyligiga jalb qilinadi. Tabiatan ilhomlangan bu ismlar nafaqat tinchlik va tabiat dunyosiga aloqadorlik tuyg'usini uyg'otadi, balki kichkintoylarning shaxsiyatiga o'ziga xos tuyg'u qo'shamdi. Fitonim nomlari chuqurroq ma'noga ega va bola hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu tomonlama ham fitonim nomlari ism uchun ajoyib tanlov bo'la oladi. Botanik nomlardan ism qidirayotganda bir qancha omillarga to'xtalib o'tish joiz hisoblanadi:

1. Ma'nosi va ramziy ma'nosi: Har bir botanika nomi o'ziga xos ma'no va ramziy ma'noga ega. Masalan, Gelimcik bu yozda qishloqda o'sadigan yorqin qizil gul. U unitilmas sevgilarni anglatadi.

2. Talaffuz va imlo: Noyob va g'ayrioddiy ism tanlash ajoyib bo'lsa-da, uning talaffuzi oson va tushunarli imloga ega ekanligiga ishonch hosil qilish ham muhim omillardandir. Farzand butun hayoti davomida o'zini tanishtirishi va ismini ko'p marta yozishi kerakligini ham unutmaslik kerak. Murakkab talaffuzi yoki imlosi bilan ism tanlash keraksiz qiyinchilik yoki chalkashliklarga olib kelishi mumkin.

3. Ommaboplrik va trendlilik: Barchaga ma'lumki hozirgi kunda har bir sohada zamонави́йлик katta rol o'yamoqda. Shu sababli, ismning omma-boplilikiga ham urg'u berish lozim.

4. Ovoz va oqim: Ismlar tildan chiqadigan yoqimli va jarangdor ritmga ega bo'lishi kerak.

**Xulosa.** Botanik nomlar, ayniqsa, gul nomlari bilan bog'liq ismlar insonga tabiiylik va go'zallik qo'shamdi. Botanika nomlari nafaqat noyob va abadiydir, balki ular atrof-muhit bilan aloqani aks ettiradi va tabiatga muhabbatni uyg'otadi. Atirgul va yasemin kabi klassik variantlardan tortib, noodatiy nomlarga qadar har qanday afzallik va uslubga mos keladigan botanika nomi mavjud. Inson shaxsiyatiga botanika nomini qo'shish tabiiy dunyonи hurmat qilish va dunyoga hayrat va minnatdorchilik tuyg'usini uyg'otishning bir usuli hisoblanadi. Gul nomlari orqali inson obrazini ifodalash til imkoniyatlarining qanchalik kengligini ko'rsatadi. Shunday qilib, ismlarni ko'rib chiqayotganda, an'anaviy variantlardan tashqari mavjud botanika nomlarining keng doirasini o'rganish kerak bo'ladi.



Buni o‘zbek tilida ham turk tilida ham tatbiq qilish esa ikki til doirasida so‘z boyligining kengayishiga zamin yaratadi.

Gulning madaniyatda talqin qilinishi esa insonlar orasidagi mazmunli munosabatlarni namoyish etadi. Bu timsol sevgi, do‘stlik, hurmat va barqarorlik kabi xos xususiyatlarni ifodalaydi. Bunday muhim timsoldan kelib chiqadigan madaniyatlar insonlarning bir-birlari bilan munosabatlari va odamlarga qarshi adabiyotini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Bozorov H. Some remarks on phytonyms in uzbek folk-tales. Article. World Bulletin of Social Sciences (WBSS) journal, Termiz: 2022. P-151.
2. Kabak, T. Toplumsal Ekoloji Bağlamında Türklerin Doğa ile ilişkilerine Genel Bir Bakış: Mandıra Filozofu Filminin Duyündürdükleri. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi. 2018. S-291.
3. “Kuntug‘mish” va “Ravshan” dostonlar. Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh nashriyoti. Toshkent:2011. B-165.
4. Sariyev B. Türkmen Ad Biliminin Botanik Gücü, Berdi Sariyev - Türkmen Türkçesi ve Kültürü Üzerinde Makaleler (Haz. Emrah Yılmaz, Tuğba Yılmaz,) Ankara: Akçağ Yay. 2017. S.-123.
5. Yasemin Y. Türkçe bitki adlarının anlam bilimi açısından incelenmesi. doktora tezi. t.c. Sakarya üniversitesi sosyal bilimler enstitüsü:2020. Ön söz.
6. Yıldız Y. Bitkilerin adlandırılmasında benzetmenin rolü. Karamanoğlu Mehmetbey Üniversitesi Edebiyat Fakültesi Dergisi, 2021. S-176.
7. O‘lmas Umarbekov “Odam bo‘lish qiyin” roman. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri. Toshkent:2007. B-192.
8. Chingiz Aytmatov “Alvido, ey Gulsari” qissa. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent:1969. B-162.

### **Internet saytlar:**

1. [www.wikipedia.org](http://www.wikipedia.org)
2. <https://blog.ciceksepeti.com/kiz-bebekler-icin-cicek-isimleri/>
3. <https://m.sabah.com.tr>
4. <https://lotusmagus.com>
5. <https://astroneergo.ru>
6. <https://scholarexpress.net>
7. <https://lyricstranslate.com>